


YANGILIKLAR TARJIMALARINING TARJIMADAN KEYINGI TAHRIRLASH USULLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7461204>

Sayyora QUROLOVA,

TDSHU o‘qituvchisi,

Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +99890 013 40 19;

E-mail: snow64795@gmail.com

Annotatsiya. *Mashina tarjimasining tarjimadan keyingi tahrir usuli tarjimonlarning ish samaradorligini samarali oshiradi, shu qatorda umum jahon tillarining hizmatida keng qo‘llaniladi. Ushbu maqola tarjimadan keyingi tahrirlashning, yangiliklar tarjimasida ishlatilishini qisqacha yoritib berib, ko‘p qo‘llaniladigan tarjimadan oldingi va keyingi tahrirlash usullarini umumlashtiradi.*

Kalit so‘zlar: *yangiliklar tarjimasi; mashina tarjimasi; post-tahrirlash;*

Аннотация. *Метод постпереводческого редактирования машинного перевода эффективно повышает эффективность работы переводчиков и широко используется в обслуживании всех языков мира. В этой статье кратко рассматривается использование редактирования после перевода при переводе новостей и обобщаются наиболее часто используемые методы редактирования до и после перевода.*

Ключевые слова: *Перевод новостей; машинный перевод; постпереводческое редактирование;*

Abstract. *The post-translation editing method of machine translation effectively increase the work efficiency of translators, and is widely used in the service of all world languages. This article briefly covers the use of post-translation editing in news translation and summarize the most commonly used pre- and post-translation editing techniques.*

Key words: *News translation; machine translation; post-editing;*

Yangiliklarni tarjima qilishning har qanday usulidan qat’i nazar, dolzarbligi asosiy talabidir, tarjima tezligi esa yangiliklarning dolzarbligiga erishishning muhim vositasi bo‘lib keladi. Masalan Biels&Bassnett (2011:91) aytib o‘tganidek, “Tezlik sifat kabi juda muhimdir, u sifatning bir qismidir [32,115]. Yangiliklar matnining chiqishi biroz noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, balkim mukammal ham bo‘lmasligi mumkin, lekin tezlik bo‘lishi kerak. Tezlik yangiliklarni tarjima qilish

jarayonining ajralmas qismidir.” Tezlikka urg‘u berish, yangiliklar tarjimasining umumiy tarjimadan farq qiladigan xususiyatlaridan biri bo‘lishi mumkin. Albatta, tezlikni ta’kidlar ekanmiz, aniqlikni ham unitmasligimiz lozim. Asl matnning mazmuniga, keltirilgan faktlariga sodiq bo‘lishimiz, asl matnning ma’lumotlarini o‘z xohishimiz bilan buzmasligimiz kerak. Hattoki tahrir qilishda ham uni kontekstdan olib tashlash yoki qisqartirib tashlash mumkin emas. Bu yangiliklar tarjimonlari uchun asosiy talab hisoblanadi. Professional yangiliklar tarjimonlari qanday qilib yangiliklarni tez va to‘g‘ri turli xil tillararo va madaniyatlararo tarqatishi mumkin? Mashina tarjimasining tarjimadan keyingi tahrirlash usuli bunga samarali natija bera oladi.

Tarjimadan keyingi tahrir. Mashina tarjimasining (PE) tarjimadan keyingi tahrirlashi dunyo tillari xizmati sohasida katta qo‘llanishga erishgan. Shu sababli ko‘pgina yirik kompaniyalar va muassasalar o‘zining tarjimadan keyingi tahrirlash guruhidan foydalanishadi, bularga: Microsoft, SDL, international, TAUS (tarjima avtomatizatsiyasi foydalanuvchisi Society) va boshqalar. Common Sense Adversary firmasi tomonidan taqdim etilgan “2016-yilda til xizmati imperiyasi” hisobotiga ko‘ra, 2016-yilda mashina tarjimasidan keyingi tahrirlash til xizmatlari bozorining 3,94 foizini tashkil qilgan va til xizmatlarini ko‘rsatuvchi provayderlarning 25,39 foizi til xizmati tarjimadan keyingi tahrir xizmatini taqdim etadi.¹ Bundan tashqari ushbu aytib o‘tilgan xizmatning porloq kelajagi bor deb hisoblashgan, shu orqali “Post-tahrirlash asosiy oqimga aylanadi” nomli mavzuda tadqiqot hisobotini e‘lon qiladi.

Barcha tarjimadan keyingi tahrir ma’lum bir maqsadlarga ko‘ra mashina tarjimasining asl nusxasini qayta ishlash va o‘zgartirish jarayonini bildiradi. Shu jumladan u tarjima (til) xatolarini tuzatish, mashina tarjimasining aniqligi va o‘qilishini yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Ular orasida tahrirlash va qayta ishlash darajasi turli omillar bilan belgilanadi, jumladan, o‘quvchining taklifi, o‘quvchining talabi, hujjat turi, mashina tarjimasi chiqishi sifati, hujjatning xizmat qilish muddati va boshqalar. Tahrirlash darajasiga ko‘ra, tarjimadan keyingi tahrirni yengil post-tahrirlash va to‘liq tahrirlashga bo‘lish mumkin [10,110]. Birinchisi

¹ Anonymous. The accept project [DB/OL]. Retrieved from <http://www/accept-project/eu/,2012-05>.

odatda ma'lumotni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan, shu bilan birga ichki tarjimaga tegishli bo'ladi, ikkinchisi odatda ma'lumot tarqatish uchun va tashqari tarjima turiga kiradi. Tatsumi shunday nuqtai nazarni ifodalaydi, ya'ni asl matnning ma'nosi to'g'ri yetkazilganligi, tarjima tili grammatikasiga mos kelishi, tarjima estetikasi va uslubidan qat'i nazar, o'quvchiga tushunarli bo'lishi kerak [8,104]. Post-tahrirlashning asosiy tamoyillarini, shuningdek, eng kam tahrirlash kuchini ishlatish, tushunarli bo'lgan tilda mashina tarjima qilingan ma'zmunli va to'g'ri matnni o'z ichiga oladi. Tarjimadan keyingi tahrirning o'ziga xosligi bu uning muayyan bir vaziyati orqali belgilanadi, masalan tarjimadan keyingi tahrirlashning maqsadi va darajasi, til turi va mashina tarjimasi tizimlarining ishlashi va o'ziga hos xususiyatlari. Xitoyning xorijiy tarjimadan keyingi tahriring tadqiqotlari 30 yildan ortiq tarixga ega. ²So'ngi o'n yil ichida Xitoy davlati ichida tarjimadan keyingi tahrirlarga katta e'tibor bera boshlashdi, ba'zi maqolalar birin-ketin nashr etila boshladi, lekin ularning aksariyati umumiydir. Masalan: Vey Changhong, Chan Chunbo va boshqalar tarjimadan keyingi tahrirning o'ziga xos qo'llanilishini va uning tahrirlarini tayyorlashni o'rgandilar. Tarjimadan keyingi tahrir tarjimonlarning ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi va loyiha siklini qisqartirishi mumkinligini hisobga oladigan bo'lsak, u yangiliklarni, ayniqsa, ma'lumotlarni yetkazadigan yangiliklarni tarjima qilish sohasida ham juda foyda keltiradi. Elmin & Carl (2014) professional tarjimonlarning 90 soatlik tarjimadan keyingi tahriri va tarjimoni taqqoslab, ularning ma'lumotlarini o'rganib chiqdi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, tarjimadan keyingi tahrirlash to'liq qo'lda tarjima qilishdan 25% samaraliroqdir. Bu ham ma'lum darajada Tarjimadan keyingi tahrirni professional yangiliklar tarjima qilish sohasidan to'liq foydalanishi, inson va mashina birgalikdagi afzalliklaridan ham to'liq foydalana olishi, va shu orqali yangiliklar tarjimonlarining ish tartibini yangilashi mumkinligini ko'rsatib keldi.

² LDC (Linguistic Data Consortium). Post Editing Guidelines for BOLT Machine Translation Evaluation [DB/OL]. Retrieved from <https://www.lde.upenn.edu/sites/www.lde.upenn.edu/files/bolt-pl-post-editing-guidelines-c1.2.pdf>, 2012.

Yangiliklar tarjimasini tahrirlashdan keyingi amaliyot.

Tarjimadan keyingi tahrirlash tarjimadan oldingi tahrirni istisno etmaydi. Tarjimadan oldin tahrirlashning asosiy maqsadi mashinalarga aniqroq tarjima qilish imkonini berish va shu orqali tarjimadan keyingi tahrirlovchilarning ish kuchini kamaytirishdir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tarjimadan oldingi tahrirlash tarjimadan keyingi tahrir uchun xizmat qiladi yoki tarjimadan oldingi tahrir keng ma’noda, ayniqsa, to‘liq tahrirlash uchun tarjimadan keyingi tahrirning ajralmas qismidir.

Tarjimadan oldin tahrirlash. Tarjimadan oldin tahrirlash mashina tarjimasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni kamaytirish va mashina tarjimasining aniqligini oshirishga yordam beradi. Tarjimadan oldin tahrirlash vositalariga asosan quyidagilar kiradi: boshqariladigan tildan foydalanish (Controlled Language), uzun gaplarni segmentatsiyalash, gap tartibini sozlash, olmoshlarni almashtirish, noaniqlikni hal qilish, jumla komponentlarini qo‘shish va o‘chirish, sinonimlarni almashtirish va boshqalar. Agar bir necha tillardagi yangiliklar bir vaqtning o‘zida nashr etilsa, yangiliklar yozish uchun boshqariladigan tillardan foydalanish, shubhasiz, mashina tarjimasini va tarjimadan keyingi tahrirga ko‘proq yordam beradi. Biroq, yangiliklar tarjimonlari ko‘pincha nashr etilgan yangiliklarga duch kelishadi va boshqariladigan tarjimani amalga oshira olmaydilar. Ular faqat tarjimadan oldin tahrirlash uchun boshqariladigan tillardan foydalanishlari mumkin. Tarjima oldidan tahrirlashning boshqa usullarining aksariyati boshqariladigan tilda yozishning asosiy talablarini ham aks ettiradi. Shu bilan birga ingliz tilidagi uzun va murakkab jumlar uchun asosiy jumlaning to‘liq va uzluksiz ifodalanishini amalga oshirish, ushbu jumlaning grammatik darajasini va qiyinligini kamaytirish uchun tarjimadan oldin tahrirlash paytida interjentsiyalar kabi o‘rnatilgan komponentlar ham o‘chirilishi mumkin. Agar tarjimon o‘chirilgan qo‘shimchani muhimroq deb hisoblasa, uni alohida tarjima qilish ham mumkin. Yangiliklar tarjimasini asosan kompilyatsiya shaklida amalga oshirilganligi sababli o‘chirish usullari, jumladan, ayrim ikkinchi darajali iboralar, paragraflar va jumladan ko‘proq foydalaniladi. Bu o‘chirish vazifalari tarjimadan oldingi tahrir bosqichida ham bajarilishi mumkin.

Tarjimadan keyingi tahrir. Tarjimadan keyin tahrirlash doirasi asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kishilar, joy va atamalarning nomlari

to'g'ri va izchil qo'llanilganligini tekshirish; So'zlarning tarjimasini to'g'ri va bir ma'noli bo'lishi, aniq kontekstga mos kelishi, mo'ljallangan sintaksis va ifoda odatlariga mos kelishi; Madaniy yoki mafkuraviy nizolar bor yo'qligi va hokazo; Yangilik tarjimasining tarjimadan keyingi muharrir birinchi navbatda tarjimaning ishonchliligi, ob'ektivligini ta'minlashi, mashina tarjimasini natijasida kelib chiqqan manba matnining noto'g'ri talqin qilinishini bartaraf etish choralarini ko'rish, va tarjima qilingan matnni o'quvchilarga grammatik jihatdan to'g'ri tarjimasini yetqazib berilishini ta'minlashi kerak. Bular esa tarjimaning o'qilishi yoki nafisligini oshirishdan ko'ra muhimroqdir. Yangiliklar tarjimalari qaysidir kanal orqali ommaga e'lon qilinishi kerakligini inobatga olsak, umuman olganda, ular to'liq tahrirdan keyin amalga oshiriladi. Biroq, yangiliklarning dolzarbligi cheklanganligi sababli, ma'lumotlarning maqbulligi va ishonchli uzatilishi sharti bilan tarjimaning grammatikasiga, uslubiga, uyg'unligi va yozuv odatlariga qo'yiladigan sifat talablariga nisbatan erkinroq bo'lib, yangiliklar tarjimasining samaradorligi va uning tarqatish tezligini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Anonymous. The accept project [DB/OL]. Retrieved from <http://www/accept-project/eu/2012-05>.
2. Bielsa, E. & S. Bassnett. Translation in Global News [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2011.
3. Elming, J. & M. Carl. Investigating user behavior in post-editing and translation using the CASMACAT workbench [A]. In O'Brien, S. (ed.). Post-editing of Machine Translation: Processes and Applications [C]. Newcastle: Cambridge Scholars Publishing, 2014.
4. LDC (Linguistic Data Consortium). Post Editing Guidelines for BOLT Machine Translation Evaluation [DB/OL]. Retrieved from <https://www.lde.upenn.edu/sites/www.lde.upenn.edu/files/bolt-pl-post-editing-guidelines-c1.2.pdf,2012>.
5. Tastumi, M. Post-Editing Machine Translated Text in a Commercial Setting: Observation and Statistical Analysis [D]. Dublin: mDublin City University, 2010.
6. 魏长宏, 张春柏. 机器翻译的译后编辑[J]. 中国科技翻译, 2007 (3).
7. Hamidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, 4(4), 100-112.

-
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
 9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (12), 374-377.
 10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
 11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
 12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.